

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

QARSHI FILIALI “ TT ” FAKULTETI

3-BOSQICH AKT 11-21 GURUH TALABASI RO'ZIYEV BEKZODNING

“ PEDAGOGIKA PSIXOLOGIYA” FANIDAN

1-MUSTAQIL ISHI



BAJARDI :

RO'ZIYEV.B

QABUL QILDI :

MIRZAYEV.S



MAVZU: Xorijiy pedagogikada ta'lim-tarbiya

Reja:

1. Antik davrda ta'lim-tarbiya

2. Estetik tarbiya

3. Axloqiy tarbiya

4. Ekologik tarbiya




Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida har jihatdan rivojlangan kishini tarbiyalash muammosi hozirgi kunning asosiy talabi bo'lib turibdi. Chunki, jamiyatda yuz berayotgan inqilobiy o'zgarishlarni insonning o'zini o'zgartirmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Ammo, yangi kishini tarbiyalash o'z-o'zidan emas, balki ijtimoiy munosabatlar yangilanishi jarayonida amalga oshadi. Bu jarayonda maktablar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalari yetakchi o'ringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda maktablar tizimi, ta'lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi. Eskicha o'qitish usullari va metodlari ma'nan eskirib, ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlari va shakllariga ehtiyoj kuchaydi.




Avstraliya ta'lim tizimi strukturasi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimiga xos.
Xususiy va davlat maktablari davlat tomonidan moliyalashtiriladi.
Boshlang'ich va o'rta ta'lim majburiydir. majburiy ta'lim 12 yil.
Avstraliyada majburiy ta'lim 5-yoshdan 15-yoshgacha, ba'zi hududlar yoki shtatlarda 17 yoshgacha.
Boshlang'ich o'rta maktab va kollejlarda o'quv yili yanvarning oxiri fevralning boshlarida boshlanib dekabr o'rtalarida tugaydi.
Bayramlar va tatlilar o'quv muassasasi tomonidan tartibga solinadi.



Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'lim-tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yuqotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq halos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga xam ega bo'lamiz. Zotan, xozirgi zamon ta'limida davlat va jamiyat talabi hamda manfaatlari aks etib turishi kerak.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat azolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim-tarbiya berishda eng ilg'or pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning eng maqbul tizimlari ni yaratish kabi jahon tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.



Ko'pchilik Avstraliyalik maktab o'quvchilari maktab formasida yurishadi. Maktablarda umumiy forma mavjud emas har qaysi maktab o'z qoidasini o'rnatadi. (faqat forma masalasida) ba'zi maktablarda forma talab ham etilmaydi.

10 sinfdan keyin bolalar maktabdan ketishlari mumkin. Ammo statistika malumotlariga qaraganda 75% o'quvchilar o'qishni davom ettiradi.


Katoilik va xususiy maktablar.

Ko'pchilik katoilik maktablari katoilik ta'lim departamenti tomonidan boshqariladi.

Xususiy maktablarda ta'lim maxsus metodlarda olib boriladi "Montessor pedagogikasi" shu metodda olib boriladi.

Shtatlar va hududlar qoidasiga binoan muddatidan oldin ham maktabga topshirish mumkin.

Bundan tashqari o'quvchilar bazi bir fanlarni hattoki butun o'quv yilidan sakrashini mumkin agar uning bilimi shunga loyiq bo'lsa.




Eng qadimgi kishilarga xos bo'lgan xislatlar, ularning dastlabki, oddiy istaklari, orzu-umidlari qadimgi eposlarda aks etgan afsonaviy obrazlar hamda qahramonlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Ruhga sig'inish (onimizm), ajdodlar ruhiga sig'inish (totemizm), sehrgarlik kabi diniy e'tiqodlar va marosimlar yoritilgan afsona va rivoyatlarda eng qadimiy ajdodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Ammo bu rivoyat va afsonalar ham massaget, sak, xorazmiy, so'g'd hamda parfiyanlar yashagan davrlar ruhini ifoda etadi, xolos.

Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda quyidagi uch guruhga ajratilgan manbalarga tayanamiz:


Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko'rgazmali ashyolar.

Xalq og'zaki ijodi materiallari hamda yozma manbalar.


Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.



Eramizdan oldingi birinchi ming yillik o'rtalariga kelib, oromiy yozuvi negizida Avesto, Xorazm, So'g'd, Kushon, Run (Urxun-yenisey), uyg'ur va boshqa yozuvlar paydo bo'ladi va ta'lim-tarbiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu davrga kelib, ibtidoiy jamoa bo'lib yashash an'anasi asta-sekin rivojlana bordi, jahon madaniyatida inmoniyat tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kashfiyotlar yaratildi. Xitoyda qog'ozning ixtiro etilishi, Hindistonda hisoblash, o'nlik sonlar tizimining paydo bo'lishi, Mesopotamiyada yer kurrasining 154 graduslarga, sutkani soatlarga, minut va sekundlarga bo'lishning o'ylab topilishi, Markaziy Osiyoda O'rta dengiz bilan Hindistonni o'zaro bog'lovchi karvon yo'lining vujudga kelishi, keyinchalik Xitoydan Markaziy Osiyo orqali O'rta dengizga Buyuk ipak yo'lining ochilishi kabi voqyealar mazkur hududlarda yashovchi xalqlar madaniyatining rivojlanishi va yozuvning tarqalishiga sabab bo'ladi.



Urxun-enasoy yodgorliklari, Irq yozuvlarini (Ta'birnoma) kabi manbalar bo'lib, ulardan yangi davr kishisini tarbiyalashda foydalanish muhim vazifalardan sanaladi. Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turk-rumiy yozuvida bitilgan Urxun-enasoy bitiklarini — toshlarga bitilgan kitoblar ham deb ataydilar. O'ziga xos xat (yozuv)da bitilgan bu bitiklar eramizning VI-VIII asrlarda yozib qoldirilgan. Toshlarga bitilgan mazkur yodgorliklar ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni beradi.




Estetik tarbiya - o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik ong va munosabatni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaning alohida shakli. Estetik tarbiya - bu estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy faol bo'lgan inson shaxsini shakllantirish jarayoni. Estetik tarbiya insonparvar mohiyatga, estetik orzuga mos keladigan voqelikni idrok etish, baholash va nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga qodir bo'lgan inson shaxsini shakllantirishga mo'ljallangan tarbiya sohasidir. Estetik tarbiyaning maqsadi: o'quvchilarda shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan axloqiy-estetik, insonparvarlik ideallarini, go'zallikni ko'ra olish, his qilish, tushunish va yaratish ko'nikmalarini shakllantirish.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga- san'at, information texnologiyalar, tabiat, mehnat, sport kabi sohalarni kiritish mumkin.


San'at- estetik tarbiyaning muhim vositasi. Bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarib borishdan ko'ra, ushbu jarayonni insonning o'zi tashkil etishi kerakligi bot-bot uqtirilmoqda. Bu jarayonda san'at mohiyatan shaxsning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan.

SHAXSNING ESTETIK EHTIYOJI

- Estetik faoliyatning ham sub'ekti, ham ob'ekti hisoblangan shaxsning estetik ehtiyoji va didi u mansub millatning tarixiy shakllangan an'ana va mezonlari, shuningdek, o'ziga xos tabiiy-hududiy, geografik va ijtimoiy hayot sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Inson haqidagi fanlar ning vazifasi tasvirlash, tushuntirish bilan birga, yana muhimi, fahmlashdir. Fahmlash, idrok etish o'rganiladigan ob'ekt yoki sohaning insoning maqsadi va idialiga muvofiqligini izohlash (interpretatsiya) demakdir. Fahmlash, idrok etish insoniylik mohiyatini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan jarayondir.



Axloqiy tarbiya – jamiyat ma'naviy hayotidagi muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, odob-axloq tizimini, axloqiy fazilatlarni zamon talablari asosida har qaysi avlod ongiga singdirish shakli. Axloqiy tarbiya adabiyot, psixologiya, etika va estetika fanlari o'rganadigan ilmiy kategoriyadir. Axloqiy tarbiya deganda o'sib kelayotgan avlodda xulq-odob me'yorlariga mos keladigan, zamon talablariga javob beradigan insoniy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy va amaliy harakatlar tizimi tushuniladi. Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq.



Axloqiy madaniyat – jamiyatsdagi axloqning yuksaklik darajasini, fuqarolarning axloqiy saviyasini aks ettiruvchi tushuncha. U shaxsning jamiyatsdagi asosiy axloq me'yorlarini egallashi va o'zgalar bilan shu asosda munosabatda bo'lishi, o'zini axloqiy tomondan muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Axloqiy aqidalarning eng muhim omillaridan biri – muomala odobi. Insonlar bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, o'zaro ta'sir ko'rsatmasdan yashashi mumkin emas. Binobarin, muloqot, muomala inson uchun asosiy ehtiyoj, zarurat. Muomala odobi o'zgalar qadr-qimmatini, hurmatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy-me'yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Ma'noli va ravon so'zlash, suhbatdoshni tinglay bilish, nutq madaniyati muomalaning muhim jihatlarni tashkil etadi. Muomala odobida muloqotning asosiy vositasi bo'lmish til katta ahamiyatga ega. Xalqimizda "Siz" ham, "sen" ham bir og'izdan chiqadi» degan dono naql bor. Shu bois muloqot paytida suhbatdoshga hurmat ifodasi sifatida har bir so'zni suhbatdoshining ko'ngliga, qiziqishi va kayfiyatiga qarab, yoshini kasbu kori, ijtimoiy hamda oilaviy ahvolini e'tiborga olib, hurmatini joyiga qo'yib gapirish, muloqot jarayonida o'rinsiz harakatlarga yo'l qo'ymaslik lozim.

AXLOQIY TARBIYA METODLARI

- ⊕ Bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarini egallab olishi, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni shaxsning axloqiy his-tuyg'ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usuli.
- ⊕ Axloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhlariga bo'linadi:
 - ⊕ 1) axloqiy tasavvur va bilimlarni, ularni xohishini shakllantirishga qaratilgan metodlar
 - ⊕ 2) axloqiy his-tuyg'ular va munosabatlarni rag'batlantirishga qaratilgan yordamchi metodlar




Ekologik tarbiya

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning tabiatga ta'sir etish darajasi ham shunchalik ko'p bo'lar ekan. Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida ekologik muammolar ham ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta'minlash haqidagi muamolar butun dunyo (global) muammolariga aylanib bormoqda.

Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigienik, yuridik, estetik, pedagogik kabi yo'nalishlari mavjud. Bu yo'nalishlar ichidan pedagogik yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik muammolar inson faoliyati natijasida kelib chiqadi.

Pedagogik yo'nalishda ekologik ta'lim va tarbiya berish ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim deganda o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi.



Ekologik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Agar bu masala oilada to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, uni maktablarda, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo'ladi. ekologik ta'lim-tarbiyani asosan, bog'cha va maktablarda amalga oshirish zarur. Bog'cha bolalarida avval ekologik ta'lim tushunchalari shakllantiriladi. 1-5 sinflarda esa, asosan, tabiatshunoslik darslarida o'qituvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya beriladi . Bunda ekologiyadan ilmiy tushunchalar maktablarda o'qitiladigan barcha fanlarda, ayniqsa, tabiatshunoslik, fizika, ekologiya, matematika, geografiya, tarix kabi fanlarni o'qitishda umumlashtiriladi. Shu bilan birga fakul'tetiv mashg'ulotlarda, darsdan tashqari to'g'arak yig'ilishlarida, ekskursiya davrida hamda o'zlariniig kundalik faoliyatlari davomida muammolarni o'rgana boradilar.





Foydalanilgan adabiyotlar

<https://jdpu.uz>

<https://www.oyina.uz>

<https://cyberleninka.ru>

<http://kompy.info>